

**SAKSOVUL KO'CHATLARINI YETISHTIRISH VA EKISH TEXNOLOGIYALARI
O'ZBEKISTON TARJIBASI****Mamayusupova Laylo G'ulom qizi**

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti,
O'rmonchilik va aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17706797>

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonning cho'l va yarim cho'l hududlarida saksovul o'simligini ko'paytirish va sun'iy ekinzorlar barpo etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar yoritilgan. Saksovulning biologik xususiyatlari, urug'dan ko'chat yetishtirish va ochiq maydonga ekish texnologiyalari ilmiy asosda tahlil qilingan. Maqolada "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Orolqum, Qizilqum va Ustyurt hududlarida saksovulzorlarni kengaytirish tajribalari keltirilgan. Shuningdek, saksovulni parvarish qilish, qum ko'chishini to'xtatish va ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida saksovul ekish texnologiyasini takomillashtirish, ekologik xavfsizlikni mustahkamlash hamda cho'llanish jarayonlarini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: saksovul, cho'l ekotizimi, ko'chat yetishtirish, ekish texnologiyasi, ekologik barqarorlik, Orolqum, Yashil makon

Аннотация. В данной статье рассматриваются работы, проводимые по размножению саксаула и созданию искусственных насаждений в пустынных и полупустынных регионах Узбекистана. На научной основе анализируются биологические свойства саксаула, технология выращивания рассады из семян и посадки в открытый грунт. В статье описываются опытные работы по созданию саксауловых насаждений в условиях Аралкумского, Кызылкумского и Уstyurtского регионов в рамках национального проекта «Доброе место». Раскрывается роль ухода за саксаулом в обеспечении правильного движения песков и экологической безопасности. Результаты исследований имеют важное значение для совершенствования технологии возделывания саксаула, укрепления экологической безопасности и снижения процессов опустынивания в Узбекистане.

Ключевые слова; саксаул, пустынная экосистема, выращивание рассады, технология посадки, экологическая устойчивость, Орлқум, зеленая зона.

Annotation. The article covers the work carried out on the reproduction of saxaul plants and the creation of artificial plantations in the desert and semi-desert areas of Uzbekistan. The biological properties of saxaul, the technology of growing seedlings from seeds and planting in open ground are analyzed on a scientific basis. The article describes the experimental experiences of saxaul plantations under the Aralkum, Kyzylkum and Ustyurt rivers within the framework of the national project "Good Place". saxaul care, its role in ensuring proper sand movement and environmental safety are revealed. The research results are important for improving saxaul planting technology, strengthening ecological safety, and reducing desertification processes in Uzbekistan.

Key words; saxaul, desert ecosystem, seedling cultivation, planting technology, ecological sustainability, Aralqum, Green space.

Kirish. O'zbekistonning katta qismi cho'l va yarim cho'l hududlardan iborat bo'lib, bu yerlarda shamol ta'sirida qum ko'chishi, tuproq eroziyasi va ekologik muammolar kuchayib bormoqda.

Shu sababli cho'l ekologik tizimini saqlab qolishda saksovlul (Haloxylon) o'simligi beqiyos ahamiyatga ega. Saksovlul qum barxanlarini mustahkamlab, tuproqni ushlab turadi, shuningdek, cho'l hayvonlari uchun oziq va soya manbai bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston hukumati va olimlari so'nggi yillarda saksovlulni ko'paytirish, sun'iy ekinzorlar barpo etish borasida samarali tajriba to'plagan.



Saksovlul cho'l sharoitiga yaxshi moslashgan cho'l o'simligi bo'lib, u yuqori harorat, kuchli shamol va suv tanqisligiga bardosh bera oladi. Ildiz tizimi 15–20 metr chuqurlikka kirib boradi. Shuning uchun u cho'lning tabiiy himoyachisi hisoblanadi. Saksovlul ko'chatlari asosan urug' orqali ko'paytiriladi. Urug'lar noyabr–dekabr oylarida pishadi va ular erta bahorda ekish uchun tayyorlanadi. Urug'lar qumli substratda, yaxshi shamollanadigan issiqxonalarda yetishtiriladi. Ekishdan oldin urug'lar 4–6 soat suvda ivitiladi. Har bir gektarga o'rtacha 5–7 kg urug' sarflanadi. Nihollar 20–25 sm balandlikka yetgach, ochiq maydonga ko'chiriladi.

Saksovlul ko'chatlarini ekish ishlari odatda fevral–mart oylarida amalga oshiriladi. Ekish chuqurligi 40–60 sm, ko'chatlar oralig'i esa 1,5–2 metr atrofida bo'ladi.

Tuproqning qumli va yarim qumli bo'lishi saksovlul uchun eng qulay hisoblanadi.

Ekishdan so'ng dastlabki 2–3 oyda tomchilatib sug'orish usuli bilan namlik ta'minlanadi.

Ba'zi hududlarda qum uchishini kamaytirish uchun saksovlul bilan birga biyurg'un va qandim singari o'simliklar ham ekiladi. So'nggi yillarda mamlakatimizda "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida millionlab saksovlul ko'chatlari ekilmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasining Orolqum hududida saksovlul ekish natijasida 1,7 million gektar maydon yashil hududga aylantirildi. Qizilqum va Ustyurt platosida ham sun'iy saksovlulzorlar barpo etilib, qum ko'chishi sezilarli darajada kamaydi. Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi mutaxassislar xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda yangi urug' navlarini sinovdan o'tkazmoqda. Orol dengizining qurigan tubi cho'l-sahrodan iborat. Bu yerda iqlimning og'irligi, tabiiy namgarchilikning kamligi o'simlik dunyosining kambag'alashuviga olib kelgan.

Shunday bo'lishiga qaramasdan ushbu hududda moslashgan ko'pgina o'simliklar o'sadi.

Ularning barchasidagi hujayralarda suvni ushlab turuvchi moddalar, efir moylari, alkaloidlar, oshlovchi moddalar suvda eruvchan tuzlar mavjud.

Xulosa: Saksovlul — O'zbekiston ekologik barqarorligi uchun muhim o'simlikdir. Uning ko'paytirilishi nafaqat cho'llanishni to'xtatadi, balki tuproq unumdorligini tiklash, havo sifatini yaxshilash va hayvonot dunyosini saqlashga xizmat qiladi.

O'zbekiston tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, saksovul ekinzorlarini kengaytirish orqali kelajak avlodlar uchun sog'lom va yashil muhit yaratish mumkin.

Saksovul o'simlikligi ildizi shamol kuchini pasaytiradi. Uzun ildizlari esa qumni to'xtatib, unda o't o'simliklar o'sishiga yordam beradi. Bu esa, o'z navbatida, madaniy vohalarga qum kirib kelishini oldini oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.Qayimov va E.T.Berdiyev Dendrologiya -T; Cho'lpon 2012-yil
2. A.Q.Qayimov Dendrologiya -T; "Ilm-ziyo" 2007
3. Ablaev S.M Yuldashov Ya.X. Madaniyat o'rmonlari. Toshkent,2008
4. A.U.Usmonov Dendrologiya -T "O'qituvchi" 1974
5. www.ekogazeta.uz
6. <https://urmon.gov.uz>